

Tashkiliy nazorat guruhi

Date : 2 Iyun, 2015

Viloyat hokimligi tashkiliy-nazorat guruhlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- kadrlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, ularni joy-joyiga quyish tizimini yaratish va muvofiqlashtirish;
- hududlarda kadrlarga bo'lgan extiyoj asosida amaldagi va istiqboldagi kadrlar zahirasini shakllantirish, ularni bosqichma-bosqich mo'ljallangan lavozimlarga tayyorlab borish, qayta o'qitish va pirovard natijada zamonaviy rahbar tayyorlash tizimini yaratish;
- rahbar kadrlar almashuvi jarayonlarini o'rganib borish va takliflar kiritish;
- hokimliklarning tashkiliy va nazorat guruhlari, shuningdek, quyidagi vazifalarni ham amalga oshiradilar:
 - mahalliy davlat hokimiyati organlariga referendum va saylovlar to'g'risidagi qonunlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasida takliflar tayyorlash, barcha turdagi saylov komissiyalarining mustaqil va oshkora ishlashlari uchun sharoitlar yaratib berishga ko'maklashish;
 - xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari doimiy komissiyalari, barcha deputatlar ish faoliyatini tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish;
 - viloyat hokimining qarori bilan tasdiqlangan rahbar kadrlar lavozimlari ro'yxati ustida doimiy ravishda ish olib borish, viloyatdagi barcha rahbar kadrlarni hisobga olish hamda kadrlarni tanlash, o'rganish, joy-joyiga qo'yish, tayinlash va ozod etish bo'yicha takliflarni viloyat hokimiga hamda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasi tasdig'iga kiritish, bu borada rahbariyatga axborotlar tayyorlash;

Davlat mukofotlariga tavsiya etish yuzasidan tegishli hujjatlarni viloyat hokimligining bo'lim va boshqarmalari, hududdagi konsern va tashkilotlari, hissadorlik jamiyatlari, jamoat

tashkilotlari, tuman va shahar hokimliklarining takliflarini olib, ularni ishchi guruh bilan birgalikda o'rganib chiqib, viloyat hokimiga kiritish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasiga nomzodlarni tanlash, o'rganish va viloyat hokimiga takliflar kiritish. Ushbu Akademiyani bitiruvchilarining keyingi ish faoliyati to'g'risida monitoring ishlarini olib borish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni hamda viloyat hokimligida rahbar kadrlar lavozimlar ro'yxatiga olingan rahbarlarni tanlash, tayinlash, joy-jo'yiga qo'yish va ularga amaldagi hamda istiqbolli kadrlar zahirasini shakllantirish bo'yicha guruhning faoliyatiga rahbarlik qiladi. Guruh vakolatiga kiradigan vazifalarni hal etish chora-tadbirlarini belgilaydi.

Viloyat hokimligida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 yanvardagi «Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 12-sonli va 1999 yil 29 martdagi «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ijro nazoratini tashkil qilish va ish yuritish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 140-sonli, 2005 yil 23 fevraldagi «Vazirlar Mahkamasining Reglamenti to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni hamda Bosh vazir tomonidan 2009 yil 18 avgust kuni tasdiqlangan «Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda shaharlar, tumanlar hokimliklarida ijro intizomining holatini doimiy o'rganish va uning monitoringini tashkil etish «Tartibi» talablari asosida ish tashkil qiladi.

Guruhga kelgan hujjatlarning ijrosini ta'minlaydi. Guruh bosh va etakchi mutaxassislariga kerakli topshiriqlarni beradi va ularni bajarilishini nazorat qiladi. Xalq deputatlari viloyat Kengashining hamda viloyat hokimligining ish rejasi loyihalarini kotibiyat va guruh rahbarlari bilan birgalikda ishlab chiqadi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyalari ishini muvofiqlashtiradi, viloyat Kengashining sessiyalarini tayyorlab o'tkazishda taalluqli kotibiyat va tashkilotlar bilan birgalikda ish olib boradi, saylovchilar oldida deputatlar hisobotini tashkil etadi.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining sessiyalarida, quyi mahalliy davlat hokimiyati organlarining yig'ilishlarida, shahar va tuman hokimlari o'tkazadigan majlislarida ishtirok etish, fuqarolarni qabul qilish, joylarda ularning ariza va shikoyatlarini o'z vaqtida ko'rib chiqib, hal etilishlarini ta'minlash.

Viloyat hokimiga guruh xodimlari, viloyat hokimligi ijroiya apparati, tuman va shahar hokimliklarini, mahalliy boshqaruv organlari rahbarlarini rag'batlantirish yoki ishdan chetlashtirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Bevosita viloyat hokimi rahbarligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining yo'riqnomasi, topshiriq va tavsiyalari asosida ish olib boradi.